

Единый портал корпоративной информации

Объявления

“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ

Объявление

“IMKON FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

ПРОВЕДЕНИЕ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ

**HURMATLI
AKSIYADORLAR!**

**“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti”
aksiyadorlik jamiyati**

**aksiyadorlarining yillik umumiy
yig'ilishi**

**o'tkazilishini ma'lum
qiladi**

Andijon shahar, A.Temur shox ko'chasi, 44-a uy manzili bo'yicha joylashgan (elektron pochta manzili: info@imkonfinans.uz (mailto:info@imkonfinans.uz), veb-sayt: www.imkonfinans.uz (http://www.imkonfinans.uz/)) “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyati 2024-yil 01-fevral kuni soat 10:00 da Andijon shahar, A.Temur shox ko'chasi, 44-a uyda joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazadi.

Aksiyadorlarni va/yoki uning vakillari ro'yxatga olish soat 09:30 da boshlanadi.

Aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishini o'tkazilishi to'g'risida aksiyadorlarni xabardor qilish uchun jamiyat aksiyadorlari reestri shakllantirish sanasi: 2024-yil 10-yanvar.

Aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlari reestri shakllantirish sanasi: 2024-yil 26-yanvar.

KUN TARTIBIGA MASALALAR:

- 1) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash
- 2) Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash
- 3) Jamiyat Boshqaruvining 2023-yil jamiyat faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotini tinglash
- 4) Jamiyat Kengashining 2023-yil faoliyati bo'yicha hisobotini tinglash
- 5) Jamiyatning 2023-yil faoliyati yakunlari bo'yicha tashqi auditor xulosasini eshitish va jamiyatning 2023-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarini tasdiqlash.
- 6) Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish.

- 7) 2023-yil faoliyati yakuni bo'yicha jamiyat foydasini taqsimlash
- 8) 2023-yil faoliyati yakuni bo'yicha jamiyat aksiyalariga dividend to'lash
- 9) 2024-yil davomida aksiyalarga oraliq dividend to'lovlarini to'lash
- 10) Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash
- 11) Jamiyat Kuzatuv kengashining 2023-yil uchun xarajatlar smetasini tasdiqlash va 2024-yil uchun xarajatlar smetasini belgilash

Aksiyador - yuridik shaxs navbatdagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishni boshqa shaxsga ishonish huquqiga ega. Bunda aksiyador vakili ro'yxatdan o'tish chog'ida tegishli tartibda rasmiylashtirilgan, uning raxbarning imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri (muhir mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan ishonchnomani taqdim etishi shart.

Aksiyador - jismoniy shaxs pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga, uning vakili esa notarial tasdiqlangan ishonchnomaga ega bo'lishi shart.

"IMKON FINANS mikrocredit tashkiloti" AJ aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorlangan axborot materillar bilan jamiyatning ma'muriy binosida tanishish mumkin. Telefon nomer (78) 298-12-35.

Jamiyat Kuzatuv kengashi

10.01.2024

Источник: <https://openinfo.uz/announce/16643/>

Дата: 02.05.2026